



## INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBALARI VA ULARDAN MILLIY AMALIYOTDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

### INTERNATIONAL EXPERIENCE IN FINANCING INNOVATIVE ACTIVITIES AND PROSPECTS FOR ITS APPLICATION IN NATIONAL PRACTICE

<sup>1</sup>**Achilov Dilshod  
Marufovich**

<sup>1</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.  
G-mail: [achilov\\_m@gmail.com](mailto:achilov_m@gmail.com)*

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning xalqaro amaliyot tajribalari hamda ularni O'zbekiston amaliyotida qo'llash istiqbollari tadqiq etilgan. O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari baholanib, mavjud muammolar va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash, venchur moliyalashtirish institutlarini rivojlantirish va kapital bozori instrumentlaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

*Eng.* - This article examines international experience in financing innovative activities and evaluates the prospects for its application in Uzbekistan. The main macroeconomic indicators of innovation financing in Uzbekistan are assessed, while existing challenges and development trends are identified. Based on international best practices, scientific and practical recommendations are proposed to diversify sources of innovation financing, develop venture financing institutions, and expand the use of capital market instruments for supporting innovative projects.

#### **Kalit so'zlar:** **Keywords:**

❖ *innovatsion faoliyat, innovatsion loyihalar, moliyalashtirish manbalari, venchur kapital, IPO, korporativ obligatsiyalar, innovatsion fondlar, kapital bozori, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, startup ekotizimi.*

❖ *innovative activity, innovation projects, financing sources, venture capital, IPO, corporate bonds, innovation funds, capital market, research and development (R&D), startup ecosystem.*

#### **Kirish.**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishda innovatsiyalarning tutgan o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda korporativ tuzilmalarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sifatini takomillashtirishda keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilib

kelinmoqda. Albatta, buning zamirida innovatsion siyosatni takomillashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish masalalari yotadi. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va uni barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bugungi kunning

dolzarb iqtisodiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya, sanoatning to'rtinchi inqilobi (Industry 4.0), sun'iy intellekt, yashil iqtisodiyot va yuqori texnologiyalar asosida rivojlanish tendensiyalarining takomillashuvi innovatsion faoliyatni moliyalashtirish mexanizmini rivojlantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Innovatsion loyihalar o'zining yuqori risk darajasi, uzoq muddatli investitsion davri va katta hajmdagi moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji bilan an'anaviy investitsiya loyihalaridan farq qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning venchur kapitali, xususiy investitsiya fondlari, biznes farishtalar (business angels), kraudfanding, IPO, korporativ obligatsiyalar, davlat grantlari va subsidiyalari kabi zamonaviy instrumentlari keng qo'llanilmoqda.

Xalqaro amaliyot tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanishda muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlar, jumladan AQSh, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan tizimini shakllantirish orqali ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) hajmini sezilarli darajada oshirishga erishgan. Ushbu mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik, kapital bozorining rivojlanganligi hamda innovatsion ekotizimning samarali tashkil etilganligi innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiy o'sishning muhim omiliga aylangan.

O'zbekiston Respublikasida ham innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, yuqori texnologik mahsulotlar ulushini oshirish hamda korxonalarining innovatsion faolligini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [1]. Biroq amaliyotda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish manbalarining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi,

venchur moliyalashtirish institutlarining rivojlanish bosqichida ekanligi, kapital bozori instrumentlaridan foydalanish darajasining nisbatan pastligi va innovatsion risklarni boshqarish mexanizmining yetarli shakllanmaganligi mazkur yo'nalishda mavjud muammolar qatoriga kiradi. Shuning uchun, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning ilg'or xalqaro tajribalarini o'rganish, ularning institutsional va moliyaviy mexanizmini tahlil qilish hamda milliy iqtisodiyot sharoitlariga moslashtirilgan holda amaliyotga joriy etish istiqbollari aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

### ***Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.***

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish masalasi so'nggi yillarda xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiboridagi ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi desak mublag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, innovatsion iqtisodiyotga o'tish, raqamli transformatsiya, yashil texnologiyalar va yuqori texnologik tarmoqlar rivojlanishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmini takomillashtirishning zarurligini namoyon etmoqda. Mazkur yo'nalishda AQSh va Yevropa mamlakatlari olimlari, rus iqtisodchi olimlari hamda o'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Amerikalik iqtisodchi olim Josh Lerner innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda venchur kapital institutlarining ahamiyatini asoslab, innovatsion kompaniyalarning tezkor rivojlanishi va texnologik ustunlikka erishishida xususiy kapital fondlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhit venchur investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi [2]. OECD tadqiqotchisi Max Berger innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlat venchur kapitali (Government Venture Capital) mexanizmini tahlil qilib, davlat va xususiy kapital integratsiyasi innovatsion korxonalar uchun

moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishini qayd etadi. Muallifning fikricha, davlat venchur fondlari xususiy investorlar uchun qo'shimcha rag'bat yaratib, innovatsion loyihalarning tijoratlashuv jarayonini jadallashtiradi [3]. Yevropalik olim Nadia Calviño va Yevropa Investitsiya Banki ekspertlari innovatsion kompaniyalarni moliyalashtirishda kapital bozorlari va venchur fondlarning ahamiyatini tadqiq etish bilan birga, Yevropa mamlakatlarida innovatsion startaplarning AQShga "ko'chib ketishini" oldini olish uchun innovatsion korxonalarni fond bozori orqali moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish zarurligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslaydi [4]. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) ekspertlari, jumladan Arnold N. boshchiligidagi tadqiqotchilar innovatsion rivojlanishni moliyalashtirishda venchur kapital bozorining o'rni bo'yicha tadqiqotlar olib borib, Yevropa Ittifoqida venchur kapital hajmining YaIMga nisbatan pastligi innovatsion faollik va mehnat unumdorligining o'sishini cheklayotganligini ta'kidlaydi. Mualliflar innovatsion kompaniyalar uchun fond bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini alohida qayd etadilar [5].

Rossiyalik olim Fokin innovatsion faollik va moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etib, kompaniyalarning innovatsion rivojlanishi moliyaviy resurslar hajmi va ularning tarkibiga bevosita bog'liq ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Muallif innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda korporativ investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmini uyg'unlashtirish zarurligini alohida ta'kidlaydi [6]. Bykova innovatsion iqtisodiy o'sishni ta'minlashda samarali moliyalashtirishning ahamiyatini o'rganib, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda davlat grantlari, venchur fondlari va imtiyozli kreditlash tizimlaridan kompleks foydalanish kerakligini qayd etadi [7]. Iqtisodchi Elena Bessonova innovatsion faoliyat va qarz mablag'lari o'rtasidagi munosabatlarni

tadqiq qilib, bank kreditlari innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim moliyaviy manba bo'lsada, yuqori risk darajasi sababli kreditlash mexanizmini takomillashtirish zarurligini asoslaydi [8]. Garnov esa innovatsion iqtisodiyotda investitsion resurslarni shakllantirish masalalarini tadqiq etib, innovatsion kompaniyalar uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda xususiy investorlar ishtirokini kengaytirish innovatsion rivojlanishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [9].

Innovatsiyalarga iqtisodiy rivojlanishga o'zining sezilarli hissasini qo'shish bilan birga, birinchidan, innovatsion mahsulot (ish, xizmat)larning asl nusxalari yaratuvchida qolib, iste'molchiga uning nusxasi sotiladi. Ikkinchidan, cheklangan resurslar sharoitida cheklanmagan inson salohiyati resursidan foydalanish imkoni shart-sharoit yaratiladi. Natijada, innovatsion faoliyatning rentabellik darajasi sezilarli darajada ortib, ilmiy sig'imkorlik oshib borgan sari tannarxning kamayib borish tendensiyasi yuzaga kelishiga imkoniyat yaratiladi [10]. Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning barqaror tizimlarini shakllantirish milliy iqtisodiyotning texnologik va raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikni integratsiya qilish lozim [11]. Mamlakatimizda innovatsion korxonalarni moliyaviy ta'minlash tizimi bo'yicha yaxlit tasavvur hali shakllanmagan. Mablag'i bor yirik korxonalar kichik innovatsiya korxonalarining loyihalariga qiziqish bildirmayaptilar. Innovatorlarning o'zlari ham kredit muddati kichikligi, foiz stavkalarining yuqoriligi va garov ta'minotining yo'qligi tufayli kredit mablag'larini olmaslikka harakat qiladi. Moliyalashtirishning yetishmasligi - bu muammoning faqat bir tomoni, shuningdek, mablag'larni qanday qilib taqsimlashni ham bilish kerak [12].

Yuqorida olimlar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar asosida ta'kidlash mumkinki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning samaradorligi nafaqat moliyaviy resurslar hajmiga, balki ularning manbalari tarkibi, jalb etish mexanizmi, risklarni boshqarish tizimi hamda innovatsion ekotizimning rivojlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Xalqaro amaliyot tajribasi innovatsion rivojlanishda yuqori natijalarga erishgan mamlakatlarda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ko'p kanalli modeli shakllanganligini ko'rsatmoqda. Bunday modelda davlat mablag'lari, venchur kapital fondlari, xususiy investitsiyalar, fond bozori instrumentlari, grantlar, biznes-inkubatorlar va akseleratorlar faoliyati o'zaro integratsiyalashgan holda amal qiladi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda asosiy e'tibor moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, innovatsion risklarni investorlar o'rtasida taqsimlash va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.**

Mavzuni ilmiy o'rganish, tahlil va tadqiq etish jarayonida tizimli tahlil, statistik tahlil va ilmiy abstraktsiya kabi usullaridan atroflicha foydalanilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil usuli yordamida O'zbekistonda 2018-2025-yillar davomida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat budjeti

xarajatlaridagi ulushi, investitsiyalar hajmi hamda tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi baholandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada va Italiya kabi rivojlangan mamlakatlarning innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tajribalari O'zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, Yangi O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan har ikkala strategiyada ham innovatsiyalarni milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdagi asosiy omillardan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijada keyingi yillarda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini (ITTKI) moliyalashtirish, innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish borasida qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlarning amaliy natijalarini baholash maqsadida O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi tahlil qilindi (1-jadval). Tahlil natijalariga ko'ra, 2018-2025-yillar davomida mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 494,8 trln so'mdan 1849,6 trln so'mga yetib, qariyb 3,7 baravarga oshgan. Ushbu holat mamlakat iqtisodiyotida kuzatilayotgan barqaror iqtisodiy o'sish va investitsion faollikning ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

1-jadval

**O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2018-2024 yy.)\***

№	Ko'rsatkichlar	Yillar							
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1.	YaIM, trln so'm	494,8	620,1	705,07	861,1	1041,8	1261,8	1535,4	1849,6
2.	ITTKI va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar, mlrd. so'm	489,0	582,3	843,1	1102,0	1420,5	1387,0	1730,0	1951,4
3.	YaIMdagi ulushi, %	0,098	0,093	0,119	0,127	0,136	0,109	0,112	0,105

4.	Davlat budjeti xarajataridagi ulushi, %	0,32	0,34	0,42	0,46	0,51	0,44	0,45	0,49
5.	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	124231	195927	210195	239552	266240	356071	507490	598756
6.	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi, mlrd. so'm (professional, ilmiy va texnik faoliyat)	4340	6231	7835	9631,5	11538,4	14599	18348,9	22407
7.	Tovarlar eksporti (mln. doll.)	10920	14023	13097	14081	15275	19229	19698	21042
8.	Tovarlar importi (mln. doll.)	17312	21866,5	19932	23740	28220	35574	35289	36051
9.	Asosiy moliyalash manbalari	Davlat budjeti, ilmiy fondlar	Davlat grantlari, oliy ta'limlar	Budjet mablag'lari, xalqaro grantlar	Innovatsion rivojlanish vazirligi grantlari	Budjet, xalqaro moliya institutlari	Budjet mablag'lari, ilmiy tashkilotlar	Budjet, innovatsion fondlar, xalqaro moliyalashtirish	Budjet, xalqaro moliya institutlari

\*<https://stat.uz/uz>, <https://cbu.uz/uz/>, <https://www.imv.uz/> - ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shu bilan birga, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hajmida ham sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lib, ITTKI va innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 2018-yildagi 489,0 mlrd. so'mdan 2025-yilda 1951,4 mlrd. so'mga yetib, qariyb 4 baravarga oshgan. Mazkur tendensiya mamlakatda innovatsion rivojlanishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning bosqichma-bosqich takomillashib borayotganligini ko'rsatadi. Biroq, mazkur xarajatlarning YaIMdagi ulushi tahlil qilinganda nisbatan past darajada saqlanib qolayotganligi kuzatiladi. Xususan, 2018 yilda ushbu ko'rsatkich 0,098 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 0,136 foizgacha oshgan, ammo 2025-yilga kelib 0,105 foiz darajasida shakllangan. Bu esa innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmi mutlaq miqdorda ortayotgan bo'lsada, iqtisodiyotning umumiy hajmiga nisbatan o'sish sur'atlari yetarli darajada yuqori emasligini ko'rsatadi. Taqqoslash uchun, G7 mamlakatlarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat xarajatlarining YaIMdagi ulushi o'rtacha 2,5-3,5 foizni tashkil etadi. Davlat budjeti xarajatlarida innovatsion faoliyatga yo'naltirilayotgan mablag'lar ulushi

ham ijobiy dinamikaga ega bo'lgan. Jumladan, 2018-yildagi 0,32 foizlik ko'rsatkich 2022-yilda 0,51 foizga qadar oshgan. Bu esa innovatsion rivojlanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanayotganligini ko'rsatadi. Biroq keyingi yillarda ushbu ko'rsatkichning 0,44-0,49 foiz oralig'ida shakllanishi innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat mablag'lari bilan bir qatorda xususiy sektor resurslarini ham faol jalb etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jadval ma'lumotlaridan yana bir muhim tendensiyaning kuzatish mumkin, ya'ni asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 2018-yildagi 124,2 trln. so'mdan 2025-yilda 598,8 trln. so'mga yetib, 4,8 baravar oshgan. Bu esa iqtisodiyotda investitsion faollikning yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Biroq mazkur investitsiyalarning innovatsion loyihalarga yo'naltirilayotgan ulushi nisbatan cheklanganligicha qolmoqda. Natijada investitsion resurslarning innovatsion faoliyatga yo'naltirilish samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati hajmi ham 2018-2025-yillar

davomida 4340,6 mlrd. soʻmdan 22407,9 mlrd. soʻmga yetgan boʻlsa, tovarlar eksporti hajmi 10,9 mlrd. AQSh dollaridan 21,0 mlrd. AQSh dollarigacha oshgan. Mazkur koʻrsatkichlar mamlakatda ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy faoliyat hajmining kengayib borayotganligini anglatsada, biroq eksport tarkibida yuqori texnologiyali va innovatsion mahsulotlar ulushi hali ham rivojlangan mamlakatlar darajasiga yetmaganligi innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, 2018-2025-yillar davomida innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari tarkibida ham muayyan diversifikatsiyalashuv kuzatilgan. Dastlabki yillarda asosiy moliyalashtirish manbalari davlat budjeti, ilmiy fondlar va oliy taʼlim muassasalari mablagʻlari hisoblangan boʻlsa, keyingi yillarda xalqaro grantlar, xalqaro moliya institutlari resurslari va innovatsion fondlar ulushi ortib borgan. Biroq rivojlangan mamlakatlar tajribasidan farqli ravishda venchur kapital fondlari, biznes-farishtalar, korporativ venchur investitsiyalar hamda kapital bozori instrumentlarining innovatsion faoliyatni moliyalashtirishdagi ishtiroki hali yetarli darajada shakllanmagan deyishimiz mumkin.

Navbatdagi jadval maʼlumotlarida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning innovatsion faoliyatni moliyalashtirishga doir asosiy koʻrsatkichlari, ushbu jarayonni tartibga soluvchi institutlar hamda moliyalashtirishning oʻziga xos jihatlari keltirilgan. Tahlil natijalariga koʻra, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish hajmi va uning YaIMdagi ulushi boʻyicha AQSh yetakchi oʻrinni egallab, 2024-yilda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga yoʻnaltirilgan xarajatlar hajmi 950 mlrd AQSh dollarini yoki YaIMning 3,5 foizini tashkil etgan (2-jadval). Mazkur natija AQShda venchur kapital bozori, IPO mexanizmlari, korporativ venchur fondlari va universitetlar qoshidagi innovatsion

markazlarning yuqori darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi. Yaponiya va Germaniyada ham innovatsion faoliyatni moliyalashtirish xarajatlari YaIMning mos ravishda 3,4 va 3,1 foizini tashkil etib, innovatsion rivojlanishning asosiy manbai sifatida korporativ investitsiyalar va ilmiy markazlar bilan sanoat kompaniyalari oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Germaniyada Fraunhofer institutlari tizimi, KfW banki va federal ilmiy-tadqiqot dasturlari innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali instrumentlari sifatida faoliyat yuritmoqda. Buyuk Britaniyada esa innovatsion startaplarni fond bozori orqali moliyalashtirish amaliyoti rivojlangan boʻlib, Buyuk Britaniya Tadqiqotlar va innovatsiyalar agentligi (UKRI) hamda Innovate UK agentliklari tomonidan innovatsion loyihalarni qoʻllab-quvvatlashning kompleks tizimi shakllantirilgan. Fransiya, Kanada va Italiya tajribasi tahlili shuni koʻrsatadiki, mazkur mamlakatlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda davlat investitsiya fondlari, grantlar, soliq imtiyozlari va xalqaro moliyalashtirish mexanizmidan keng foydalaniladi. Ayniqsa, Kanadada innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida soliq preferensiyalari qoʻllanilib, innovatsion kompaniyalar uchun qulay investitsion muhit yaratilgan. Italiyada esa Yevropa Ittifoqi grantlari va maxsus innovatsion fondlar innovatsion loyihalarning asosiy moliyaviy manbalari hisoblanadi.

2-jadval maʼlumotlaridan koʻrinadiki, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning asosiy xususiyati moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyalashganligi, xususi sektorning faol ishtiroki hamda kapital bozori instrumentlaridan keng foydalanilishidir. Bunda davlat innovatsion loyihalarning dastlabki bosqichlarida qoʻllab-quvvatlovchi va muvofiqlashtiruvchi vazifani bajarsa, keyingi bosqichlarda asosiy moliyalashtirish manbalariga aylanadi.

2-jadval

**G7 mamlakatlarida innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan resurslar, faoliyatni tartibga soluvchi asosiy institutlar va O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy jihatlari (2015-2024 yy.)\*\***

Mamlakat	R&D*	YaIMga nisbatan ulushi, %	Asosiy regulyator va moliyalashtiruvchi institutlar	Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning asosiy mexanizmi	O'zbekiston amaliyotidan asosiy farqli jihatlari
AQSh	950	3,5	AQSh Milliy ilmiy jamg'armasi (NSF), AQSh Energetika vazirligi (DOE), DARPA, SBA	Venchur kapital, IPO, korporativ venchur fondlari, grantlar, universitet fondlari	Xususiy sektor ulushi 70% dan yuqori, dunyodagi eng yirik venchur bozori shakllangan
Yaponiya	190	3,4	Yaponiya Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (METI), JST	Korporativ innovatsiyalar, davlat grantlari, texnologik fondlar	Korporatsiyalar innovatsion xarajatlarning asosiy manbai hisoblanadi
Germaniya	145	3,1	Germaniya Federal ta'lim va ilmiy tadqiqotlar vazirligi (BMBF), KfW Bank	Innovatsion kreditlar, grantlar, Fraunhofer instituti dasturlari	Innovatsiyalar sanoat va ilmiy markazlar integratsiyasi asosida moliyalashtiriladi
Buyuk Britaniya	95	2,9	Buyuk Britaniya Tadqiqotlar va innovatsiyalar agentligi (UKRI), Innovate UK	Startup fondlari, venchur kapital, grantlar	Innovatsion startaplarni fond bozori orqali moliyalashtirish amaliyoti rivojlangan
Fransiya	80	2,2	Fransiya Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar vazirligi	Davlat investitsiya fondlari, innovatsion grantlar	Davlatning innovatsion moliyalashtirishdagi roli yuqori
Kanada	45	1,8	Kanada Innovatsiyalar, fan va iqtisodiy rivojlanish vazirligi (ISED)	Grantlar, soliq imtiyozlari, venchur kapital	Innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq mexanizmi keng qo'llaniladi
Italiya	35	1,5	Kompaniyalar va "Made in Italy" siyosati vazirligi	Davlat dasturlari, innovatsion fondlar, Yevropa Ittifoqi grantlari	Innovatsion loyihalarda Yevropa Ittifoqi mablag'lari muhim ulushga ega
O'zbekiston	1,2	0,105	Innovatsion rivojlanish agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	Davlat grantlari, budjet mablag'lari, xalqaro moliya institutlari resurslari	Venchur kapital bozori rivojlanish bosqichida, kapital bozori instrumentlaridan foydalanish darajasi nisbatan past

\*Innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar, 2024-yil, mlrd. AQSh dollari, \*\*Davlatlarning innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi asosiy regulyatorlarning rasmiy ves saytlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston amaliyoti tahlili esa innovatsion faoliyatni moliyalashtirish tizimi so'nggi yillarda sezilarli rivojlanayotgan bo'lsada, rivojlangan mamlakatlar bilan qiyoslaganda qator tizimli farqlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yilda innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlar hajmi 1,2 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, uning YaIMdagi ulushi 0,105 foiz darajasida shakllangan. Bu ko'rsatkich G7 mamlakatlari o'rtacha darajasidan qariyb 20-30 baravar past ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda davlat grantlari, budjet mablag'lari va xalqaro moliya institutlari resurslari asosiy manba

sifatida saqlanib qolmoqda. Tahlillarda aniqlanishicha, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun venchur kapital institutlarini rivojlantirish, korporativ venchur fondlarini tashkil etish, innovatsion kompaniyalarni IPO va korporativ obligatsiyalar orqali moliyalashtirish amaliyotini kengaytirish, shuningdek, xususiy investorlar uchun soliq va investitsion rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash va kapital bozori

instrumentlarini keng joriy etish innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Mazkur tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish mamlakatning innovatsion salohiyatini oshirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

### ***Xulosa va takliflar.***

O'rganilgan ilmiy manbalarda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning alohida jihatlari, xususan venchur kapital, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, kreditlash mexanizmi va investitsion resurslarni shakllantirish masalalari keng tadqiq etilgan bo'lsada, aksiyadorlik jamiyatlarining innovatsion faoliyatini moliyalashtirishda kapital bozori instrumentlari, korporativ obligatsiyalar, IPO instrumenti, korporativ venchur fondlari hamda raqamli moliyalashtirish vositalaridan kompleks foydalanish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Ayniqsa, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning xalqaro amaliyotda sinovdan o'tgan tajribalarini O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish va ularni milliy amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini baholashga doir ilmiy tadqiqotlarni jadallashtirish kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining innovatsion rivojlanishga oid farmon va qarorlari asosida mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash hamda zamonaviy texnologiyalar transferini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada texnoparklar, innovatsion markazlar, biznes-inkubatorlar va venchur moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishning institutsional

yo'nalishlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur tadqiqotda innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan samarali instrumentlari tizimli ravishda o'rganilib, ularning afzalliklari va cheklovlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy iqtisodiyot va yirik aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning diversifikatsiyalashgan modelini shakllantirish, venchur moliyalashtirish institutlarini rivojlantirish, kapital bozori instrumentlaridan foydalanish ko'lamini kengaytirish hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi innovatsion iqtisodiyotga o'tishning zamonaviy yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur bosqichda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startap ekotizimini rivojlantirish, xususiy sektorni innovatsion jarayonlarga faol jalb etish hamda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot tarmoqlariga integratsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Shu bilan birga, AI, Big Data, GovTech va "Smart regulation" tizimlaridan foydalanish innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi. Bu esa innovatsion faoliyatni boshqarishda zamonaviy raqamli ekotizimni shakllantirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Mazkur yondashuv innovatsion faoliyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, innovatsion loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda mamlakat iqtisodiyotining innovatsion rivojlanish sur'atlarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning xalqaro tajribalarini tizimli o'rganish va ularni milliy amaliyotga moslashtirish masalasi nafaqat nazariy, balki

muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekistonda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha muhim institutsional va moliyaviy asoslar yaratilgan bo'lsada, innovatsion loyihalarga yo'naltirilayotgan mablag'larning YaIMdagi ulushi va moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi rivojlangan mamlakatlar darajasidan ancha pastligicha qolmoqda. Shuning uchun innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda venchur kapital bozorini rivojlantirish,

innovatsion kompaniyalarning IPO va korporativ obligatsiyalar orqali moliyaviy resurslar jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklikni takomillashtirish hamda innovatsion risklarni sug'urtalash tizimini joriy etish istiqboldagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa innovatsion faoliyatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan birga, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va texnologik rivojlanish sur'atlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonuni O'RQ-630-son.
2. Lerner J., Nanda R. *Venture Capital's Role in Financing Innovation: What We Know and How Much We Still Need to Learn* // *Journal of Economic Perspectives*. – 2020. – Vol. 34, No. 3. – P. 237–261.
3. Berger M. *What is the Role of Government Venture Capital for Innovation-Driven Entrepreneurship?* // *OECD Science, Technology and Industry Policy Papers*. – Paris: OECD Publishing, 2024. – No. 178.
4. European Investment Bank. *European Tech Leadership Requires More Innovation Financing, EIB Report Says* // *EIB Economics Department Report*. – Luxembourg: European Investment Bank, 2024.
5. Arnold N., Adilbish A., de Nicola F. *Stepping Up Venture Capital to Finance Innovation in Europe* // *IMF Working Paper WP/24/146*. – Washington DC: International Monetary Fund, 2024. – 42 p.
6. Фокин И.В. Финансирование инновационной деятельности российских предприятий в условиях структурной трансформации экономики // *Экономика и предпринимательство*. – 2022. – № 8. – С. 112–118.
7. Быкова О.Н., Гарнов А.П. Финансовые механизмы стимулирования инновационного развития хозяйствующих субъектов // *Финансовая экономика*. – 2023. – № 4. – С. 45–53.
8. Бессонова Е.В. Источники финансирования инновационной деятельности и их влияние на инвестиционную активность предприятий // *Вопросы инновационной экономики*. – 2023. – Т. 13, № 2. – С. 821–836.
9. Календжян С.В. Инновационное развитие компаний и современные механизмы финансового обеспечения // *Российское предпринимательство*. – 2024. – Т. 25, № 1. – С. 57–71.
10. Raxmonov D. *Innovatsiya: mohiyati va uni moliyalashtirish asoslari* // *Xalqaro moliya va hisob*. – 2019. – № 1 (fevral). – B. 87–95.
11. Shomansurova Z. *Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda moliyalashtirishning barqaror tizimlarini shakllantirish: O'zbekiston tajribasi* // *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. – 2025. – № 1 (yanvar). 45–56 b.
12. Norov A.R. *Innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda tijorat banklarining rolini oshirish* // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2020. – № 2 (mart-aprel). – B. 1–12.